Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	



DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKKA OID ILMIY YONDASHUV VA QARASHLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI



O'ktamova Nargiza Narzulla qizi

TDIU mustaqil izlanuvchi

uktamova.nargiza@mail.ru

ORCID: 0009-0004-0047-7543

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat-xususiy sheriklik (DXSh)ning nazariy asoslari, huquqiy mexanizmlari va iqtisodiy samaradorligi o'rganiladi. DXSh infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, innovatsiyalarni joriy etish va davlat xizmatlarini takomillashtirishda muhim vosita sifatida baholanadi. Tadqiqot davomida xalqaro tajriba tahlili orqali risklarni taqsimlash, investitsiyalarni jalb qilish va DXShning boshqaruv mexanizmlari ko'rib chiqildi. Yakunda samaradorlikni oshirishga doir tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Davlat-xususiy sheriklik, infratuzilma, investitsiyalar, risklarni taqsimlash, davlat xizmatlari, huquqiy mexanizmlar.

Abstract: This article explores the theoretical and legal foundations of public-private partnerships (PPP) and their role in economic development. PPPs are assessed as effective tools for infrastructure financing, investment attraction, and enhancing public service delivery. The study analyzes international practices to examine risk-sharing models, financing mechanisms, and organizational structures. The paper concludes with practical recommendations to improve PPP efficiency and sustainability.

Key words: Public-private partnership, infrastructure, investments, risk-sharing, public services, legal mechanisms.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и правовые основы государственно-частного партнёрства (ГЧП), а также его роль в экономике. ГЧП анализируется как эффективный механизм для привлечения инвестиций, развития инфраструктуры и повышения качества государственных услуг. На основе международного опыта выявлены особенности распределения рисков, организационных моделей и финансовых механизмов. В заключение даны рекомендации по повышению эффективности реализации ГЧП.

Ключевые слова: государственно-частное партнёрство, инфраструктура, инвестиции, распределение рисков, государственные услуги, правовые механизмы.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida sodir bo'layotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlar, xususan, texnologik taraqqiyot va iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi fonida korporativ boshqaruv hamda infratuzilma tizimlarining takomillashuvi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat sektorining doimiy ravishda ortib borayotgan ijtimoiy va iqtisodiy xarajatlarini qoplash, infratuzilmani zamon talablariga mos rivojlantirish uchun barqaror moliyaviy manbalarni jalb etish zarurati ortmoqda. Bu esa xususiy sektor ishtirokini ta'minlaydigan muqobil yechimlar, xususan, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modelining dolzarbligini oshirmoqda.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlar iqtisodiy taraqqiyot va demografik o'sishni qo'llab-quvvatlash maqsadida infratuzilmani rivojlantirishga salmoqli moliyaviy resurslarni yo'naltirgan. Ana shunday sharoitda DXSh modeli davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni shakllantiruvchi



mexanizm sifatida qaraladi. Ushbu model risk va foyda elementlarini muvozanatli taqsimlash orqali infratuzilmani rivojlantirish va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy iqtisodiy nazariya va amaliyotda DXSh barqaror iqtisodiy rivojlanish va milliy raqobatbardoshlikni oshirishning strategik vositasi sifatida e'tirof etilmoqda.

DXSh konsepsiyasi tarixan turli mamlakatlarda o'ziga xos shakllangan. Qadimgi sivilizatsiyalar davridayoq davlat obyektlarini xususiy boshqaruvga topshirish tajribalari mavjud bo'lgan. Masalan, Qadimgi Yunoniston, Rim va Bobil davlatlarida ayrim infratuzilma obyektlari xususiy tuzilmalarga ishonib topshirilgan¹ Rim imperiyasida soliq yig'ish jarayonini mytarlar amalga oshirgan, ular bu huquqni davlatdan xarid qilgan, shuningdek, yer resurslari va foydali qazilmalarni o'zlashtirish huquqlari ham xususiy shaxslarga berilgan.

AQShda DXSh amaliyoti XX asrning 1950-yillarida ta'lim dasturlarini moliyalashtirishda paydo bo'lib, 1960-yillarda shaharsozlik va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga tatbiq etila boshlandi².

G'arbiy Yevropada esa bu model XVI asrdayoq, xususan, 1552-yilda Fransiya qiroli Genrix II tomonidan koncessiya asosida kanal qurilishi loyihasi orqali shakllangan. XIX asrda Parijdagi Eyfel minorasining moliyalashtirilishi ham DXSh asosida amalga oshirilgan edi.

Buyuk Britaniyada XVII asr o'rtalarida yo'l infratuzilmasini rivojlantirish uchun xususiy sektor ishtirokida infratuzilma ob'ektlarini qurish va ulardan foydalanish uchun to'lovlar joriy etilgan³.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa DXSh modeli XX asr oxirgi choragida keng tarqalgan. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 1990–2003-yillar oralig'ida umumiy qiymati 2,8 trillion AQSh dollarini tashkil etuvchi 2750 ta DXSh loyihasi amalga oshirilgan bo'lib, ulardan 47 foizi Lotin Amerikasi va Karib havzasida qayd etilgan, Chili va Meksika esa yetakchi ishtirokchi davlatlar sifatida e'tirof etilgan⁴.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotimiz natijalariga tayanib aytish mumkinki, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) tushunchasining qamroviga oid yagona yondashuv mavjud emas. Keng talqinda DXSh nafaqat iqtisodiyot, balki siyosat, madaniyat, ilm-fan va boshqa sohalarda ham davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni o'z ichiga oladi.

DXShning turli shakl va modellar asosida amalga oshirilishi ushbu hamkorlikning funksional xilma-xilligini ifodalaydi. Zamonaviy adabiyotlarda quyidagi asosiy DXSh modellarining mavjudligi ko'rsatilgan:

- Design-Build (DB) – “Loyiha yaratish – Qurilish” modeli. Bu shaklda xususiy sektor davlat ehtiyojlarini qondirish maqsadida infratuzilma obyektlarini loyihalashtiradi va quradi, biroq mulk huquqi davlat tasarrufida qoladi.

- Operation & Maintenance (O&M) – “Ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish” modeli. Xususiy operator davlatga tegishli obyektlarda belgilangan muddatda shartnoma asosida xizmat ko'rsatadi.

- Design-Build-Finance-Operate (DBFO) – “Loyiha yaratish – Qurilish – Moliyalashtirish – Ekspluatatsiya” modeli. Ushbu modelda xususiy sektor obyektini qurish, moliyalashtirish va boshqarish majburiyatini oladi. Shartnoma muddati tugagach, obyekt davlatga topshiriladi.

- Build-Operate-Transfer (BOT) – “Qurilish – Ekspluatatsiya – O'tkazish” modeli. Xususiy sektor infratuzilma obyektini quradi, ekspluatatsiya qiladi va foydalanuvchilardan to'lov yig'ish orqali xarajatlarini qoplaydi. Shartnoma muddati tugagach, obyekt davlatga o'tkaziladi.

- Buy-Build-Operate (BBO) – “Sotib olish – Qurilish – Ekspluatatsiya” modeli. Bu modelda xususiy sektor mavjud davlat obyektini sotib olib, uni modernizatsiya qiladi va belgilangan muddat davomida xizmat ko'rsatadi.

- Build-Own-Operate (BOO) – “Qurilish – Egallik – Ekspluatatsiya” modeli. Ushbu modelda xususiy sektor infratuzilma obyektini quradi, moliyalashtiradi va uni o'z tasarrufida saqlab qolgan holda ekspluatatsiya qiladi⁵.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) sohasiga oid ilmiy va amaliy manbalar, rasmiy qonunchilik hujjatlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda statistik ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Ma'lumotlar kontent tahlili, taqqoslama usul va statistik dinamik tahlil asosida umumlashtirilib, O'zbekiston va xalqaro tajriba asosida DXShning samaradorlik ko'rsatkichlari baholandi.

1. Механизмы государственно-частного партнерства. Теория и практика: учебник и практикум для вузов / Е. И. Марковская [и др.] под общей редакцией Е. И. Марковской. – Москва: Издательство Юрайт, 2019. – 491 с. – (Высшее образование).
2. “Overview of PPP experience” Toolkit for public-private partnerships in roads & highways. Module 1: overview and diagnosis uPdaTed march 2009.
3. В.А. Сухих, М.Н. Руденко, Е.Д. Оборина. К вопросу о понятии и сущности государственно-частного партнерства // Научно-технические ведомости СПбГПУ. Экономические науки № 2 (168) 2013.
4. WTO Introduction to public private partnerships. https://ieg.worldbankgroup.org/sites/default/files/Data/reports/chapters/ppp_chap1_0.pdf
5. Юсупов Н, Карабаев Ф «Теория и практика государственно-частного партнерства» учебный модуль. Ташкент – 2013, 124 с.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) institutining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-sonli Qonun bilan mustahkamlandi. Ushbu huquqiy asos davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik orqali samarali investitsiya muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, energetika, sog'liqni saqlash, ta'lim, transport kabi strategik sohalarida DXSh loyihalarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish faol ravishda rag'batlantirilmoqda.

2024-yil 2-may kuni bo'lib o'tgan Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, oxirgi yillarda mamlakatimizda 60 milliard AQSh dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari tomonidan 14 milliard AQSh dollaridan ortiq mablag' ijtimoiy va infratuzilma sohalariga jalb etildi. 2025-yil 2-fevral holatiga ko'ra, aynan davlat va xususiy sektor hamkorligida umumiy qiymati 354 020 126,52 million so'm bo'lgan 2 648 ta loyiha amalga oshirilgan yoki amalga oshirilmoqda.⁷

Ushbu ko'rsatkichlar DXSh mexanizmlarining mamlakat iqtisodiy taraqqiyotidagi strategik rolini yaqqol namoyon etadi. Mazkur jarayonni tizimli ravishda rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida 2024 – 2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-308-sonli qarorni imzolagan. Ushbu hujjatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni doirasida 2030-yilgacha DXSh loyihalariga kamida 30 milliard AQSh dollari miqdorida xususiy investitsiyalarni jalb etish belgilangan. Shuningdek, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash maqsadida ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmani hududlar kesimida rivojlantirish, elektr energiyasi ishlab chiqarish sohasidagi DXSh tajribasini boshqa yo'nalishlarga ham tatbiq etish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda DXSh modeli davlat infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xususiy investitsiyalarni jalb etishning samarali usuli sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2024-yil 16-yanvar kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev investitsiyalar va eksport ko'rsatkichlari borasida quyidagi ma'lumotlarni taqdim etdi:

- Yalpi ichki mahsulot (YAIM) 6,5 foizga oshib, 115 milliard AQSh dollariga yetdi;
- Xorijiy investitsiyalar hajmi 1,6 barobar ko'payib, qariyb 35 milliard AQSh dollarini tashkil etdi;
- Qiymati 10 milliard dollarlik 242 ta yirik va o'rta loyihalar amalga oshirildi;
- Eksport hajmi ilk bor 27 milliard AQSh dollariga yetdi¹⁰.

Shu bilan birga, mamlakatda shaharlashuv jarayonining jadallashuvi, sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borayotgani, eskirgan infratuzilmaning mavjudligi va yangi aholi guruhlariga muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yetkazish kabi qator muammolar mavjud.

Aynan yuqoridagi omillar DXSh modelidan foydalanish zaruratini oshirmoqda. Jumladan, shaharlashuv bilan bog'liq yuklama, jamoat xizmatlarining zamonaviylashtirilishga ehtiyoji, demografik bosim ostida infratuzilma kengaytmasi zaruriyati DXShni muqobil moliyalashtirish va boshqaruv vositasi sifatida namoyon qiladi.

Biroq DXSh jarayonini rivojlantirishda quyidagi tizimli muammolar mavjud:

Byudjet taqchilligi va subsidiya tizimi: infratuzilma xizmatlarini moliyalashtirish, asosan, davlat byudjetining cheklangan resurslari hisobidan amalga oshiriladi. Ko'plab loyihalar subsidiya mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlanmoqda, bu esa davlat moliyaviy resurslariga qo'shimcha yuk keltirmoqda.

- Xususiy investitsiyalar yetishmovchiligi: ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yirik infratuzilma loyihalariga xususiy sarmoyalar yetarlicha jalb qilinmayapti.

- Xususiy sektor ishtirokining pastligi: DXSh loyihalarida xususiy investorlarning faolligi yetarli darajada emas. Bunga davlatning iqtisodiyotdagi ortiqcha ishtiroki, moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanmaganligi va samaradorlikni ta'minlashdagi muammolar sabab bo'lmoqda.

- Moliya bozori orqali resurslar jalb qilishning cheklanganligi: xususiy sektor moliyalashtirishda moliya bozorlaridan yetarli darajada foydalana olmayapti¹¹.

6 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-sonli Qonun: <https://www.lex.uz/ru/docs/-4329270>

7 DXSh loyihaları reyestri.

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida 2024 – 2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-308-sonli qaror: <https://www.lex.uz/uz/docs/-7089556>

9 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

10 Investitsiya va eksport bo'yicha asosiy vazifalar belgilandi. <https://president.uz/oz/lists/view/7825>

11 N.Sh.Shavkatov. Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi infratuzilma loyihaları va ularning moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. № 6, dekabr, 2020 yil. 1-10 b.



O'zbekistonda DXShni rivojlantirish bo'yicha quyidagi strategik chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

1. Huquqiy va institutsional islohotlarni kuchaytirish – DXSh jarayonlarini shaffof va tartibga solingan tizim asosida tashkil etish uchun qonunchilikni takomillashtirish va investorlar uchun kafolatlar tizimini mustahkamlash zarur.

2. Xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish – soliq imtiyozlari, kafolatlangan daromadlar, davlat kafolatlari va boshqa moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali xususiy sektor ishtirokini oshirish muhim.

3. Moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish – xususiy sektorning moliya bozorlariga kirishini yengillashtirish, shuningdek, DXSh loyihalarida risklarni minimallashtiruvchi yangi moliyaviy vositalarni ishlab chiqish lozim.

4. Samaradorlikni oshirish – loyiha boshqaruvi va monitoring tizimlarini takomillashtirish orqali davlat resurslaridan oqilona foydalanish ta'minlanadi.

DXSh jahon miqyosida iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas omillaridan biri hisoblanadi. U davlat va xususiy sektor o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik shakli bo'lib, muayyan loyihalar doirasida resurslar, investitsiyalar va tavakkalchiliklarning taqsimlanishini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ushbu tushunchaning yagona va universal ta'rifi mavjud emas. Har bir davlat, xalqaro moliya instituti yoki iqtisodiy tadqiqot markazi DXShga o'z institutsional va iqtisodiy sharoitlari asosida yondashadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-sonli 12 Qonunida DXSh quyidagicha ta'riflangan:

"Davlat-xususiy sheriklik – davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishga asoslangan hamkorlik." 13. Mazkur ta'rif DXShning asosiy mohiyatini ochib beradi. U uzoq muddatli, huquqiy asosda shakllangan hamkorlik bo'lib, davlat va xususiy sektor o'z resurslarini birlashtirib, ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni birgalikda amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar davlat-xususiy sheriklik (DXSh)ning mohiyati va amaliyotdagi ahamiyati borasida turli nuqtai nazarlarni ilgari surishgan. Ularning ta'riflari DXShga oid yondashuvlarning ko'p qirrali va tizimli ekanligini ko'rsatadi.

Xususan, Sh. Navro'zov o'z tadqiqotlarida DXShni "ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan strategik, institutsional va iqtisodiy-moliyaviy hamkorlik shakli" sifatida ta'riflaydi 14.

Sh. Xalilova esa DXShni "simbiotik, bir-birini to'ldiruvchi munosabat" deb baholab, unda davlat va xususiy sektor o'z resurslari, tajribasi hamda bilimlarini jamiyat manfaatlarini yo'lida uyg'unlashtiradi, deb hisoblaydi 15.

Ch. Xaydarova DXShni "innovatsion-korporativ tadbirkorlik shakli" sifatida ko'rib chiqadi va uning asosiy vazifasini mavjud iqtisodiy muammolarni hal etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishishda ko'radi 16.

N. Tillabov DXShni "Xususiy investitsiyalarni jalb qilish va ilg'or boshqaruv tajribalarini joriy etish orqali davlat xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan uzoq muddatli manfaatli shartnomalar va bitimlar" deb talqin qiladi 17.

N. Tillabov esa DXShni "xususiy investitsiyalarni jalb qilish va ilg'or boshqaruv tajribalarini joriy etish orqali davlat xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan uzoq muddatli manfaatli shartnomalar va bitimlar majmuasi" sifatida talqin qiladi 18.

Xalqaro doiradagi yondashuvlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, rus iqtisodchisi D.V. Nyuxayev o'zining "Государственно-частное партнерство в социальной сфере" nomli maqolasida DXShning sog'liqni saqlash, ta'lim, uy-joy kommunal xo'jaligi, infratuzilma va boshqa ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik shakli sifatida qarayotganini qayd etadi 19.

12 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-sonli Qonuni: <https://lex.uz/docs/-4329270>

13 O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonuni. 10.05.2019 yildagi O'RQ-537-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son. <https://lex.uz/docs/-4329270>.

14 Sh. Navro'zov. Davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2023-yil.

15 Sh. Xalilova. Maktabgacha-ta'lim tashkilotlari faoliyatini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2024-yil

16 Ch. Xaydarova. Davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilayotgan loyiha(korxona)larni moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2025-yil

17 N.T. Tillabov. Xususiy lashtirish va davlat-xususiy sheriklik (O'quv qo'llanma). – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-manbaa uyi", 2022-278 b.

18 Д.В. Нухаев. «Государственно-частное партнерство в социальной сфере» Социально-экономические явления и процессы. №1(035), 2012. С.-116-119.

19 Торопушина Е.Е., Башмакова Е.П.3 «Государственно-частное партнерство в социальной сфере арктических стран европы». Вопросы государственного и муниципального управления. 2020. № 4. С.-167-190



DXShning xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan ta'riflari turlicha jihatlariga asoslangan bo'lib, ushbu hamkorlik modeliga doir yondashuvlar xalqaro miqyosda sezilarli darajada farqlanadi.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) DXShni xususiy sektor tomonidan an'anaviy davlat xizmatlarini ko'rsatish modeli sifatida tavsiflaydi. Bu yondashuvga ko'ra, xususiy sektor xizmatlarni yetkazib berish jarayoniga investitsiya kiritadi va tegishli tavakkalchiliklarni o'z zimmasiga oladi.

Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) DXShni davlat va xususiy sheriklar o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik shakli deb hisoblaydi. Bunda davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar xususiy sektorga o'tkaziladi, ammo davlatning strategik manfaatlarini saqlanib qoladi.

Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) ta'rifiga ko'ra, DXSh – bu xususiy sektorning infratuzilmani loyihalashtirish, moliyalashtirish, qurish, ekspluatatsiya qilish va boshqarishda ishtirok etishini nazarda tutuvchi shartnomaviy munosabatdir. Mazkur mexanizm xizmatlar sifatini oshirish, iqtisodiy samaradorlikka erishish hamda infratuzilmaning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. DXSh nafaqat an'anaviy infratuzilma sohalarda, balki energetika, transport, suv ta'minoti, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa ijtimoiy sohalarda ham keng qo'llanilmoqda²⁰.

– Kanada hukumati DXShni jamoat ehtiyojlarini qondirish maqsadida resurslar, tavakkalchiliklar va mukofotlarni taqsimlash orqali amalga oshiriladigan hamkorlik deb izohlaydi.

– Avstraliya hukumati esa DXShni loyihalashtirish, moliyalashtirish, qurish va boshqarish bosqichlarini o'z ichiga oluvchi keng qamrovli mexanizm sifatida tavsiflaydi.

– Standard & Poor's DXShni davlat va xususiy sektor o'rtasidagi uzoq muddatli kelishuv deb hisoblaydi. Bu modelda moliyaviy resurslar va tajribalar birlashtirilib, siyosiy va iqtisodiy maqsadlarga erishish ko'zda tutiladi.

– McKinsey & Company DXShning to'rtta asosiy modelini ajratib ko'rsatadi: umumiy tasavvur, umumiy maqsadlar, barcha sheriklarning investitsiyasi va qarorlar qabul qilishda ishtiroki, shuningdek, mahsulot va xizmatlarni yetkazib berish jarayonini boshqaruvchi rasmiy tuzilmaning mavjudligi.

Ushbu mexanizm davlatning moliyaviy yukini kamaytirish, xususiy investitsiyalarni jalb etish va davlat xizmatlari sifatini yaxshilash imkoniyatini yaratadi. DXSh iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda innovatsion rivojlanish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan vosita sifatida baholanmoqda.

DXSh turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Eng oddiy ko'rinishi – davlat muassasalarining ayrim xizmatlarini xususiy sektorga outsorsing qilish (masalan, maktablar uchun tozalik xizmatlari, ovqatlanishni tashkil etish). Murakkabroq hollarda esa, «qurish, boshqarish, topshirish» (BOT – Build-Operate-Transfer) kabi shartnomaviy rejimlar orqali xususiy sektor investitsiya kiritadi, ekspluatatsiya bosqichida xizmat ko'rsatadi va katta tavakkalchiliklarni zimmasiga oladi²¹.

Ba'zi holatlarda hatto to'liq xususiylashtirish ham DXSh shakllaridan biri sifatida qaraladi, bunda davlat o'zining iqtisodiy faoliyatini xususiy sektorga topshiradi, biroq strategik nazoratni saqlab qoladi.

Umuman olganda, DXSh jahon iqtisodiyotida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi uzoq muddatli strategik hamkorlikning muhim vositasi sifatida tobora keng qo'llanilmoqda. U resurslarni birlashtirish orqali infratuzilma obyektlarini barpo etish, aholiga sifatli xizmat ko'rsatish va davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

DXShning muhim jihatlaridan biri shundaki, ushbu mexanizm har ikkala tomon uchun manfaatli bo'lib, tavakkalchiliklar va majburiyatlarni teng taqsimlash tamoyiliga asoslanadi. Mazkur tamoyil asosida DXSh loyihalarida davlat va xususiy sektor quyidagi asosiy yo'nalishlarda hamkorlik qiladi:

Resurslarni birlashtirish – DXSh doirasida davlat va xususiy sektor moddiy va nomoddiy resurslarni safarbar qiladi. Bu esa infratuzilma loyihalarini barqaror rivojlantirish imkonini beradi.

Xavf-xatarlarni taqsimlash – tavakkalchiliklar va majburiyatlar aniq belgilangan shartnomalar asosida davlat va xususiy sheriklar o'rtasida taqsimlanadi. Bu esa loyihalarning barqarorligini ta'minlaydi.

Maqsadga yo'naltirilgan boshqaruv – DXSh modeli davlatning strategik manfaatlariga mos ravishda natijalarga erishishni maqsad qiladi. Unda loyiha jarayoni emas, balki uning samaradorligi va yakuniy natijalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, DXShning qonuniy ta'riflari ham mazkur tamoyillarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunida DXSh quyidagicha ta'riflangan:

"Davlat-xususiy sheriklik – davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorlik.²²

Mazkur ta'rif DXShning huquqiy mohiyatini aniq ifodalab, sheriklik resurslari asosida shakllanadigan hamkorlik tizimini anglatadi.

²⁰ ADB and Public-Private Partnerships//<https://www.adb.org/what-we-do/topics/public-private-partnerships/overview>

²¹ PPP-Chap // https://ieg.worldbankgroup.org/sites/default/files/Data/reports/chapters/ppp_chap1_0.pdf

²² O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonuni. 10.05.2019 yildagi O'RG-537-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son. <https://lex.uz/docs/-4329270>.



DXSh amaliyotga joriy etilishida muhim omillardan biri uning tashkiliy tuzilmasi hisoblanadi. Ushbu mexanizm doirasida har ikki tomon o'z resurslarini birlashtirar ekan, xususiy sektor tashkiloti loyihaning muayyan komponentini (obyektni) o'z balansiga oladi va uning boshqaruvi hamda ekspluatatsiyasi uchun javobgar bo'ladi. Shu sababli, DXSh loyihalarida xususiy sektor tomonidan maxsus boshqaruv kompaniyasining tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega.

DXShning samarali ishlashida quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

Tashkiliy strukturaning aniqligi – loyihani amalga oshirish jarayonida davlat va xususiy sektorning vakolatlari va funksiyalari aniq belgilanishi lozim;

Shartnomaviy munosabatlar – uzoq muddatli DXSh loyihalarida huquqiy asoslar mustahkam bo'lishi, tomonlar o'rtasidagi majburiyatlar qat'iy tartibga solinishi kerak;

Moliyaviy resurslarni jalb qilish – xususiy sarmoyalarni jalb etish, moliyaviy oqimni barqarorlashtirish DXShning samaradorligini belgilovchi muhim mezonlardan biridir.

DXSh infratuzilmani rivojlantirishdan tashqari, davlat xizmatlarini samarali ko'rsatish vositasi sifatida ham ahamiyatlidir. Misol tariqasida, O'zbekistonda quyidagi yo'nalishlarda DXSh loyiholari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda:

nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishi;

zamonaviy istirohat bog'lari va futbol maydonlarining barpo etilishi;

axborot texnologiyalarini joriy etish orqali xizmatlar sifatini oshirish.

Bunday loyihalar davlat byudjetiga ortiqcha yuk bo'lmasligi uchun xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida tashkil etilgan.

Shuningdek, DXSh modeli xususiy sektor uchun ham quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

Rivojlanayotgan sohalarga kirish imkoniyati – ilgari faqat davlat ishtirokida bo'lgan sohalarda xususiy tadbirkorlik qilish imkoniyati yaratiladi;

Moliyaviy barqarorlik va uzoq muddatli daromad – DXSh loyiholari uzoq muddatli va barqaror daromad manbai bo'lib xizmat qiladi;

Davlat kafolatlari va institutsional qo'llab-quvvatlash – xususiy sektor loyihalarida davlat kafolatlari, soliq imtiyozlari va huquqiy himoya mavjud bo'ladi.

Jahon miqyosida DXSh orqali amalga oshirilayotgan investitsiyalar hajmi ortib bormoqda. Masalan, 2023-yilda infratuzilma sohasida xususiy ishtirok etish (PPI) bo'yicha global investitsiyalar hajmi 86,0 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich past va o'rta daromadli mamlakatlarning umumiy YAIMi (38,8 trillion AQSh dollari)ning 0,2 foiziga teng.

Garchi bu raqam 2022-yildagi 91,3 milliard dollarga nisbatan biroz past bo'lsa-da, 2023-yildagi majburiyatlar so'nggi besh yillik (2018–2022) o'rtacha darajasi – 85,5 milliard AQSh dollaridan yuqoridir. Loyiha soni bo'yicha esa 2022-yildagi 260 ta loyihaga nisbatan 2023-yilda 322 taga yetgan bo'lib, bu ham besh yillik o'rtacha ko'rsatkich – 305 ta loyihadan yuqori natijani tashkil etdi²³.

Ushbu tendensiyalar DXSh modelining jahon bozorida investitsion vosita sifatida barqaror va dolzarb ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Infratuzilma va ijtimoiy loyihalarga jalb qilinayotgan xususiy kapital davlat byudjeti uchun muhim yengilliklar yaratadi va umumiy investitsiya samaradorligini oshiradi.

Shunday qilib, DXSh zamonaviy iqtisodiyotda davlat va xususiy sektorning resurslarini birlashtirish orqali infratuzilmani modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish va sarmoyalarni jalb etishning muhim mexanizmiga aylanmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) – bu davlat va xususiy sektor o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik mexanizmi bo'lib, infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish hamda ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Tarixiy jihatdan DXSh modeli turli mamlakatlarda o'ziga xos shakllarda shakllangan bo'lib, u Rim imperiyasi davridan tortib, zamonaviy rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi tajribagacha keng qamrovda qo'llanib kelinmoqda.

Bugungi kunda DXSh modeli nafaqat infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish vositasi, balki samarali boshqaruvni ta'minlash, tavakkalchiliklarni taqsimlash va xususiy sektor resurslarini jalb qilish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi strategik instrument sifatida e'tirof etilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida DXSh loyiholari turli modellar asosida – xususan, BOT (qurish – ekspluatatsiya – o'tkazish), DBFO (loyiha yaratish – qurilish – moliyalashtirish – ekspluatatsiya) va BOO (qurilish – egallik – ekspluatatsiya) shaklida keng tatbiq etilmoqda.

O'zbekistonda DXSh institutsional jihatdan rivojlanmoqda. 2019-yilda qabul qilingan "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun ushbu sohaning huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

23 www.worldbank.org // Private Participation in Infrastructure (PPI) 2023 Annual Report



Shunga qaramay, DXSh mexanizmining to'liq va samarali ishlashi uchun quyidagi tavsiyalarni inobatga olish maqsadga muvofiq:

Huquqiy asoslarni takomillashtirish – DXSh shartnomalarining yuridik kafolatlari va tomonlar majburiyatlari aniq belgilanishi lozim. Loyihalarning barqarorligi huquqiy muhitning barqarorligiga bevosita bog'liq.

Xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish – qulay investitsiya muhiti yaratish, soliq va bojxona imtiyozlari, shuningdek, daromad kafolatlari orqali xususiy investorlarning ishtirokini kengaytirish kerak.

Moliyaviy mexanizmlarni kuchaytirish – DXSh loyihalarini moliyalashtirishda xalqaro moliya institutlari va xususiy sarmoyadorlarni jalb qilish orqali yangi moliyaviy vositalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, DXSh modeli nafaqat infratuzilmani modernizatsiya qilishga, balki davlat va xususiy sektor o'rtasidagi uzoq muddatli, o'zaro manfaatli strategik hamkorlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy vosita sifatida qaralishi lozim.

Shu bilan birga, mamlakatda DXSh loyihalarining samaradorligini oshirish, xususiy sektor ishtirokini faollashtirish, risklarni oqilona taqsimlash va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

DXSh modeli davlat infratuzilmasining barqaror rivojlanishini ta'minlash, innovatsion yondashuvlar asosida iqtisodiy o'sishga turtki berish va O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.08.2024-yildagi PQ-308-son. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2024-y., 07/24/455/1092-son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni. 10.05.2019-yildagi O'RQ-537-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son. <https://lex.uz/docs/-4329270>.
3. Sh. Navro'zov. Davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2023-yil.
4. Sh. Xalilova. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2024-yil.
5. Investitsiya va eksport bo'yicha asosiy vazifalar belgilandi. <https://president.uz/oz/lists/view/7825>
6. N. Sh. Shavkatov. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi infratuzilma loyihalari va ularning moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali, № 6, dekabr, 2020-yil. 1–10 b.
7. Ch. Xaydarova. Davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2025-yil.
8. Uktamova N. Chinese Commercial Banks Experience in Asset Diversification. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – T. 1. – № 4.
9. N. T. Tillabov. Xususiylashtirish va davlat-xususiy sheriklik. (O'quv qo'llanma). – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-manbaa uyi", 2022 – 278 b.
10. Д. В. Нюхаев. «Государственно-частное партнерство в социальной сфере». Социально-экономические явления и процессы, № 1(035), 2012. С. 116–119.
11. Торопушина Е. Е., Башмакова Е. П. «Государственно-частное партнерство в социальной сфере арктических стран Европы». Вопросы государственного и муниципального управления, 2020, № 4. С. 167–190.
12. ADB and Public-Private Partnerships. <https://www.adb.org/what-we-do/topics/public-private-partnerships/overview>
13. Yu. Yusupov, F. Karabayev. Teoriya i praktika gosudarstvenno-chastnogo partnerstva. O'quv moduli. Toshkent, 2013 – 124 s.
14. PPP Chapter. https://ieg.worldbankgroup.org/sites/default/files/Data/reports/chapters/ppp_chap1_0.pdf
15. Uktamova N. Theoretical Issues to Increase the Efficiency of Emission Operations of Commercial Banks. // International Finance and Accounting. – 2021. – T. 2021. – № 4. – B. 14.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>